

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAPNING BOSH BO'LAKLARI TARTIBI

Jo'rayeva Moxinur Najmiddin qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi gaplarning tuzilishi, bu ikki tilda gap tuzilishidagi farqlar va o'xshashliklar yaqqol ko'rsatilgan. Gapning bosh bo'laklari tartibini misollar yordamida qiyoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gap, gap bo'laklari, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, sifat-dosh.

Kirish. Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. Gap bo'laklari grammatikaning sintaksis bo'linimida o'rganiluvchi muhim va katta mavzulardan biridir. Zarur bo'lmagan hollarda gap bo'laklarining o'rinlarini o'zgartirish gapning ma'nosiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi, oqibatda gapda ayrim qo'shimcha ma'no tovlanishlari paydo bo'lishi yoki imloviy, uslubiy hatolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois xorijiy tilni ona tiliga qiyoslab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Fransuz va o'zbek tillarining har ikkisida ham besh xil gap bo'laklari mavjud, ular ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol bo'lib, ushbu gap bo'laklari tartibi bir-biriga taqqoslansa, ular o'rtasida o'xshashlikdan ko'ra tafovut ko'pligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ko'pchilik talabalar tarjima qilish paytida qiyinchiliklarga duch keladilar va yangi tilni o'rganishda ko'plab tushunmovchiliklar tug'diradi. Gap bo'laklarining tartibi har ikki tilda ham muqim o'ringa ega, shuning uchun gap tuzishda har bir tilning o'z grammatik qoidalaridan kelib chiqqan holda gap tuzish lozim.

O'zbek tilida gap bo'laklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi: bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi va holdir. O'zbek tilida istisno bo'lmagan hollarda ega hamisha kesimdan oldin, kesim gap oxirida keladi. Gapning asosiy ma'no anglatuvchi qismi deb kesim qaraladi va bazi hollarda faqatgina kesimning o'zidan ham muloqot manbayi sifatida foydalanish mumkin. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, gap bo'laklarining yakka holda qo'llanishi nafaqat kesim doirasida balki, boshqa bo'laklarda ham kuzatilishi mumkin. Bu holat nutqimizda og'zaki hamda yozma holda ishlatiladi. Oddiy kundalik muloqot (so'zlashuv) uslubida ham yoki, yozuvchilar tomonidan asar qahramonlarining nutqi tabiiy, hamda, tasirliroq bo'lishi uchun badiiy uslubda ham foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Masalan: Madina uy ishlarini qilyapti. U har doim onasiga yordam beradi.

Fransuz tilida: Madina fait le menage. Elle toujours aide sa mere.

Bu tarjimada quyidagi farqlarni ko'rish mumkin. O'zbek tilda mantiqiy urg'u oldigan so'z kesim oldiga o'tadi va boshqa so'zlarga nisbatan kuchli ohang bilan aytiladi. Fransuz tilida

esa bunday holda hech qanday o'rin almashish bo'lmaydi, faqatgina kuchli ohang bilan aytiladi xolos.

Fransuz tilida ega odatda kesim oldidan kelib qui? (kim), que? (nima) so'roqlariga javob beradi. fransuz tilida ham ega (sujet) gapning bosh bo'laklaridan biridir. Kesim ham gapning bosh bo'lagidir. Kesim eganing holatini va harakatini anglatadi. O'zbek tilidan asosiy farqlanadigan holati, kesim odatda egadan keyin qo'yiladi va ko'pincha shaxs formasida bo'lgan fe'l orqali ifodalanadi. Kesimning ikki xil bo'ladi. Xuddi o'zbek tilidagi kabi fe'l kesim (predicat verbal) va ot kesim (predicat nominal)ga bo'linadi.

Masalan: Nous parlons francais. (predicat verbal)

O'zbek tilida: Biz fransuzcha gapiramiz. (fe'l kesim).

O'zbek tilida ega o'z aniqlovchisidan keyin kelgan bo'lsa, fransuz tilida ega gap boshida kelgan, aniqlovchi unga qui (kimki) so'roq olmoshi bilan ergashgan. Agar fransuz tilida mazkur gapdagi ega va aniqlovchi o'rinlari almashtirilsa, ham grammatik tuzilma, ham gap mazmuni o'zgaradi. Ya'ni aniqlovchi maxsus so'roq gapga aylanib, ega bilan ham, kesim bilan ham bog'lana olmaydi. Agar fransuz tilida kesim tarkibida yordamchi yoki modal fe'l bo'lsa, qayd etilgan fe'llar ega oldiga o'tadi va asosiy fe'l o'z o'rnida qoladi. Shuningdek, kesim "etre", "avoir" fe'lidan tashkil topgan bo'lsa, butun bir kesim ega oldiga o'tadi.

Masalan: Etes vous marie? As tu un ordinateur?

O'zbek tilida ega nisbatan kesimning o'rni qat'iyroq, ya'ni u ko'pincha gap oxirida keladi. Ayrim o'rinlarda ega o'ziga yoki kesimga tobe so'zlardan keyin keladi. Biroq shunda ham ega kesimdan oldin turadi. Masalan: Tashqarida Ulug'bekni qurshab olib kelgan beku navkarlar qo'riqchilik qilmoqda (P.Qodirov). O'zbek tilida to'ldiruvchi gapda kesimga bog'lanib kelishi bois ega va kesim o'rtasida keladi. Aniqlovchi o'zbek tilida ham, fransuz tilida ham o'zi aniqlab kelayotgan so'z olida keladi. Agar gapda aniqlovchining uchala turi ham mavjud bo'lsa, u quydagicha joylashadi: qaratgich, sifatlovchi, izohlovchi aniqlanmish (ega yoki to'ldiruvchi). Hol hamisha kesimga bog'lanadi va o'zbek tilida kesim oldida keladi. Ammo o'rin va payt, ba'zan maqsad va sabab hollari gap boshida kela oladi. Masalan: Tevarak-atrofdan hanuzgacha jimjitlik hukm surmoqda (P. Qodirov).

Fransuz tilida ham o'rin va payt hollari gap boshida yoki ohirida kelishi mumkin. Hol bu xususiyati bilan o'zbek tilidagiga o'xshab ketadi.

Masalan: Mardi soir, mon frere est arrive.

Ammo kesim yordamchi yoki modal fe'llardan tashkil topgan bo'lsa, bunda payt hollari yordamchi va asosiy fe'l o'rtasiga joylashadi.

Noaniq zamoni bildiruvchi ravishlar bilan ifodalangan hollar har doim kesimdan oldin joylashadi.

Masalan: Je jamais entendu parler.

Ammo "souvent" (tez-tez), "occasionnellement" (har zamon), "parfois" (ba'zanda) hollari gap boshida ham kela olishi mumkin.

Masalan: Occasionnellement, je pleure.

Ravish hollari, yangi ish-harakatni qay darajada bajarilganligini bildiruvchilar, gapning ohirida keladi.

Masalan: Il va tres bien. Tu marches vite.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fransuz va o‘zbek tillarida gaplarning tuzilishi bir biridan keskin farqli hisoblanadi. Chunki fransuz va o‘zbek tillaridagi gap bo‘laklarining o‘rni bir xil emas. O‘zbek tili ega gap boshida kesim esa gap oxirida keladi, fransuz tilida ega gap boshida, kesim egadan so‘ng qo‘llanadi. Fransuz tilida, ayniqsa, ravish hollarini qo‘llashda e‘tiborli bo‘lish talab etiladi. Chunki fransuz tili qoidalari bo‘yicha ular ega va kesim o‘rtasida yoki kesim va predlog o‘rtasida keladi. Agar kesim o‘timsiz fe‘ldan tashkil topgan bo‘lsa, ravish holi kesimdan keyin, o‘timli fe‘ldan tashkil topgan bo‘lsa, vositasiz to‘ldiruvchidan keyin keladi, o‘timli fe‘ldan tashkil topgan bo‘lsa, vositasiz to‘ldiruvchidan keyin keladi.

Masalan: Tu n’as pas besoin de t’inquieter pour moi.

Agar fransuz tilida birdan ortiq o‘rin hollari keladigan bo‘lsa, ularni joylashtirishda joyning katta-kichikligiga e‘tibor berib, avval kichik o‘rin joyi, so‘ng katta o‘rin joyi qo‘llaniladi.

Masalan: J’ai etudie dans une ecole de langues en France.

O‘zbek tilida esa buning aksi: Men Fransiyadagi til maktabida o‘qiganman.

O‘zbek va fransuz tillaridagi misollarni qiyoslash va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tildagi gap bo‘laklarini tartibida o‘xshashlik va tafovutlar mavjud. Bu farqlarni bilish bir tildan ikkinchi tilga aniq va to‘liq tarjima qilishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov X. Ozbek tilining amaliy grammatikasi. -T.: Oqituvchi 1992.
2. Muhiddinova X. va boshqalar. Hozirgi ozbek adabiy tili. - T.: 2004.
3. Malika Sayfitdinovna Soatova “O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GAPNING BOSH BO‘LAKLARI TARTIBI” Academic Research Educational Sciences, Volume 2, Issue 3, 2021.
4. Turniyozov O‘, Mallina L.E, Andreychiqova L.P. Fransuz tili grammatikasi.- T.:O‘qituvchi 1978. 199-208 bet.